

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI
XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI ADABIYOTI KAFEDRASI**

Annotatsiya: Amrita Pritamning ijod yo‘li va hikoyanavisligi, yozuvchi hikoyalarida sevgi va hayot masalasi, uning “Bir qiz bir jom” hikoyasida ayol obrazi, “Suyaklar va gul” va “Qizil qalampir” hikoyalarida sevgi masalasi, “Suhbat” hikoyasida hayot mazmunini anglash kabi masalalar hindiy tilidagi hikoyalar misolida tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Amrita Pritam hikoyalarida ayol obrazining ma’naviy olami.

Bajardi: “Janubiy Osiyo tillari” kafedrası

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Abdullayev Ilhom _____

Ilmiy rahbar: “Janubiy Osiyo tillari” kafedrası

dotsenti Xodjayeva T.A. _____

TOSHKENT – 2015

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi” fakulteti

dekani f.f.n, dots. Q.Omonov,

“ ” 2015-yil

XSHMA kafedrasi mudiri

f.f.n., dots. U. Muxibova

“ ” 2015-yil

Mundarija.

Krish.....	4
I . Bob. Amrita Pritam ijodida hikoyanavislik.....	8
1.1.Amrita Pritamning ijodiy yo’li.....	8
1.2.Amrita Pritamning hikoyanavisligi.....	11
II . Bob. Amrita Pritam hikoyalarida sevgi va hayot masalasi.....	18
2.1.Amrita Pritamning “Bir qiz bir jom” hikoyasida ayol obrazi.....	18
2.2.Amrita Pritamning “Suyaklar va gul” hikoyasida sevgi masalasi.....	25
2.3.Amrita Pritamning “Qizil qalampir” hikoyasida sevgi izlash masalasi..	34
2.4.Amrita Pritamning “Suhbat” hikoyasida hayot mazmunini anglash....	43
Xulosa va takliflar.....	49
Adabiyotlar ro’yxati.....	52

Kirish

Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim tizimida qilinayotgan izchil ishlar, islohotlar sababli bugungi kungi yoshlari va kelgusi avlod uchun muhim qadamlardan bo'lmoqda. Bunday ishlardan biri Toshkent davlat sharqshunoslik institutida olib borilayotgan ishlarni misol qilib keltirish mumkin. Asosan sharq davlatlari va ularning tili, adabiyoti, dini urf-odatlar va madaniyatini o'rganadigan fakultet va kafedralar mavjud bo'lib, ulardan biri Uzoq sharq va janubiy osiyo tillari kafedrasidir. Bu yerda asosan hind va urdu tillari o'qitiladi. Tarixan Pokiston, Hindiston xalqlari bizning xalqimiz bilan aloqalari yaqin bo'lganligi uchun va O'zbekistonda bu tillar adabiyotiga bo'lgan qiziqish sababli urdu-hind adabiyotini o'rganish asosiy vazifalardan biriga aylanadi. Ma'lumki, adabiyot – so'z san'ati va ayni damda madaniyatning ko'zgusidir. Demak, madaniyatning taraqqiyoti adabiy imkoniyatlarining taraqqiy etishini talab qiladi.

Azaldan xalqimiz sharq adabiyotini kuchli qiziqish bilan o'rgangan. Istiqlol yillariga kelib sharq adabiyotida tarjima sohasiga juda katta e'tibor qaratilayotgani e'tiborga molik holat desak mubolag'a bo'lmaydi, adabiyotshunoslik, xususan tarjimaning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi adabiyotlar chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Zotan, muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilardi. Endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini ona tilimizdan bevosita g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur".¹

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, biz yoshlarga yaratilib berilayotgan imkoniyatlar amalda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Endilikda biz nafaqat urdu tili va adabiyotini, balki shu xalqning tarixi, madaniyati hamda urf-odatlar, turmush tarzini bevosita o'rganish, yaqindan tanishish imkoniyatiga egamiz. Bundan tashqari ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada yuksaltirishga o'z salohiyatimizni safarbar etishimiz darkor. Jumladan,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, T., 2009. 139-b.

yurtboshimiz o‘z ma‘ruzalarida shunday deydilar: “Bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini mamlakatimiz kelajagi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siymosida muayyan kasb, ba‘zan bir necha yo‘nalish bo‘yicha diplom olgan, bir necha xorijiy tillari va adabiyotini o‘rgangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir so‘z bilan aytganda, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko‘zlaridan o‘t chaqnab turgan navqiron yigit-qizlarni ko‘rib qalbimizda ishonch, g‘urur-iftihor tuyg‘ulari jo‘sh uradi”¹

Ilmiy ishning mavzusi: Amrita Pritam hikoyalarida ayol obrazining ma‘naviy olami. Shundan kelib chiqib, ilmiy ishning maqsad va vazifalari, dolzarbligi, uning yangiligi belgilab olindi. Bundan tashqari Amrita Pritamning hayoti va ijodi o‘rganib, uning hikoyalari tarjima qilindi va tahlil qilindi.

Mavzuning dolzarbligi. Amrita Pritam ijodiy yo‘lini o‘rganar ekanmiz, shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, uning hikoyalarini bundan oldin Серебрякоб И.Д. hamda Чельшев Е.П. qisman o‘rganishgan. A. Pritam hikoyalari asosan Xodjayava T.A. tomonidan ko‘proq o‘rganilgan. Biz uning “Hindiston xalqlari adabiyoti” hamda “Художественная прозы Амрити Притам” kitoblaridan bilishimiz mumkin. Lekin shunga qaramay uning hali o‘rganilmagan, tarjima qilinmagan hikoya va asarlari juda ko‘pdir. A. Pritam ijodiga, hikoyalariga bo‘lgan qiziqish va yuqoridagilarni inobatga inobatga olgan holda uning hali o‘rganilmagan “Ek larki ek jam” ya’ni “Bir qiz bir jom” hikoyalar to‘plamidan 4 hikoyani olib ularni o‘rganib tahlil qilish, asosiy obrazlar orqali qanday mavzu yoritilganligi va ochib berish ishimizning asosiy dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Yuqorida aytilganidek A.Pritamning “Bir qiz bir jom ” kitobidan “Bir qiz bir jom”, “Suyaklar va gul”, “Qizil qalampir” va “Suhbat” hikoyalarini olib tarjima qilib, tahlil qilish, bosh obrazlarni, ulardagi asosiy mavzu va mazmunini yoritish ishimizning maqsadi hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqidan

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi. A.Pritamning bu hikoyalari o'zbek kitobxon va o'quvchilari uchun butunlay yangi va notanish xisoblanadi. Oldin ta'kidlab o'tganimizdek, A.Pritamning ko'p hikoyalari nafaqat o'zbek tiliga rus tili va boshqa tillarga ham hali tarjima qilinmagan. Bundan tashqari hikoyalar tarjima qilib, o'rganish jarayonida ularning yangicha uslub va shaklda ekanligini bildik va shularni inobatga olsak, ilmiy ishimizning yangiligi mana shularda namoyon bo'ladi.

Ilmiy ishning vazifasi. Ushbu ilmiy ishimizga yuqoridagi maqsadlarini inobatga olgan holda uning bir qancha vazifalari bilglab olindi. Birinchidan, hikoyalarni to'liq tarjima qilish. Ikkinchidan, uni to'liq o'rganib badiiy jihatdan tahlil qilish, bosh obrazlar va hikoyaning asosiy g'oyasini aniqlash. Uchinchidan, uning o'rganilganlik darajasini bilib, ilmiy xulosalar berish.

Ilmiy ishining yana bir muhimligi shundaki Amrita Pritamning hikoyalarini o'qish orqali o'sha davr tarixi, ijtimoiy muhiti, odamlari, ularning o'y-hayollari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bu nafaqat adabiyot, tarixiy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Yozuvchining tanlab olingan "ek larki ek jam" ya'ni "bir qiz bir jom" nomli hikoyalar to'plamidan olingan hikoyalarimiz bundan oldin tarjima qilinmagan va o'rganilmagan. A.Pritamning ijodiy yo'lini bundan oldin birqancha olimlar va yozuvchilar o'rganishgan. Jumladan, Серебрякоб И.Д.ning "Пенжабская литература", Чельшев Е.П.ning "Современная индийская литература" asarlarida hamda Xodjayeva T.A.ning "Художественная прозы Амрити Притам" monografiyasi. Shu bilan birga panjob va rus olimlari tomonidan ko'pkina ilmiy maqolalar ham chop etilgan. Ular ichida Xodjaeva T.A. Amrita Pritamni ko'proq o'rgangan. Biz uning ilmiy maqolalari va asarlarida bularning isbotini ko'rishimiz mumkin. Muallifning "Bir qiz bir jom" hikoyalar to'plami bundan oldin rus tiliga tarjima qilingan bo'lib,

“Женщина и кубок” nomi bilan “Азия и Африка сегодня” jurnalida bosilib chiqadi¹. Uni rus tiliga В.Коткин tarjima qilgan.

Ishning ob’ekti. Ishning ob’ekti sifatida А. Притамнинг “Bir qiz bir jom” hikoyalar to’plami va uning ichida to’rt hikoya, ya’ni bular “Bir qiz bir jom”, “haddiyan aor phul” (“Suyaklar va gul”), “Lal mirch” (“Qizil qalampir”) va “Mulaqat” (“Suhbat”) tanlab olindi.

¹ В.Коткин. (А.Притам) «Женщина и кубок» Ж. Азия и Африка севодняю М.: 1968. №5 (Rus tilida).

I . Bob. Amrita Pritam ijodida hikoyanavislik.

1.1. Amrita Pritamning ijodiy yo'li.

Amrita Pritamning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni biz ko'proq Xodjaeva T.A.ning "Hindiston xalqlari adabiyoti" darsligidan ko'rishimiz mumkin. Amrita Pritam 1919-yilning 31-avgustida Gujranvala shaharchasida tarixchi va shoir Kartar Singh Xitkari oilasida tavallud topadi. U 10 yoshida onasidan ayriladi. U barcha ta'lim-tarbiyani otasidan oladi, shu jumladan unga shoiralikka bo'lgan qiziqish otasidan o'tadi. Amrita yoshligidan she'r yozishdan tashqari musiqa chalishni ham o'rganadi. Buning natijasida Amrita an'anaviy Singh she'riyatiga taqlid qilib, asosan diniy-mistik va sentimental-romantik kayfiyatdagi she'rlar yoza boshlaydi. Ana shu she'rlarining bir nechtasi 1935-yilda chiqqan "Sovuq nurlar" she'riy to'plamidan o'rin oladi.

30-yillarning o'rtalarida A.Pritamning she'riy to'plami nashr qilinishiga qaramay, u asosan 40-yillarda adabiyot maydoniga kirib keldi. Ayni shu davr uning she'riyatida o'zini o'rab turgan olam va insonning his-tuyg'ulariga murojaat etish yaqqol ko'rina boshlaydi. Ikkinchi jahon urushi, 1947-yili Hindistonning ikki mustaqil davlat- Hindiston va Pokistonga bo'linishi A.Pritam fikrlarini o'zgartirib yubordi. Shoiraning o'zi bu yillarni ijodida burilish yasagan yillar deb tan oladi. A.Pritam o'zining lirik she'riyatida insonning ko'p qirrali murakkab ichki dunyosini tasvirlash bilan bir qatorda fuqarolik pozitsiyasini aniq ifodalagan holda milliy va ijtimoiy turmush muammolari to'g'risida she'rlar yarata boshladi. A.Pritamning "Voris Shohga xitob" she'ri shoiraning fuqarolik lirikasini boshlab berdi. Apritam 1947-yildan keyingi ijodida Hindiston oldida turgan masalalarni hal etish yo'llarini qidiradi, inson taqdirining umumbashariyat taqdiri bilan aloqador ekanligini ko'rsatishga intiladi.

50-60-yillar A.Pritam ijodi uchun sermahsul bo'ldi. Bu davrga kelib shoiraning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari uzil-kesil shakllandi va uning nasriy asarlari-romanlari, hikoyalari va adabiy-tanqidiy maqolalarida o'z aksini topdi. “Doktor Dev” (1949), “Qafas” (1950), “Yopiq eshik” (1961) Romanlarida muallifning diqqat markazida o'z taqdirini o'zi hal etishni anglagan, jamiyat hayotida faol qatnashish borasida ham o'z huquqini tushungan ayollar obrazi turadi. Yozuvchining 60-yillarda yozilgan “Nagmani” (1964), “Yer, dengiz va chig'anoqlar” nomli (1965) romanlarida ayol tasvirini yaratishda an'anaviy ifoda usulidan birmuncha uzoqlashish seziladi.

U bu davrda ilk asarlariga nisbatan o'z qaxramonining ichki dunyosiga, ruhiyatiga yanada chuqurroq kirib, ularning yashash tarzini yanada ta'sirchan lavhalarda ifodalab beradi. A.Pritam 60-yillarning oxiri va 70-yillarda yillarda yozilgan asarlari mavzusining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. “Musofir” (1968), “Sayyoh” (1971), “Suvdagi chiziq” (1974), “Ularning tarixi” (1976), “Bu haqiqat” (1977), “O'n uchinchi quyosh” (1978) va boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlarda vatanga muhabbat, hayot ma'nosi, yoshlar taqdiri kabi masalalar yoritilgan.

A.Pritamning birinchi hikoyalar to'plami (26-yil o'tib) 1943-yilda chop etildi. Ilk to'plamlarida an'anaviy Panjob hikoyachiligida bo'lganidek, ehtiroslilik (sentimentalizm) kuchli edi. Keyingi to'plamlari, asosan 60-70-yillarda chop etilib, yozuvchi uchun bu davr sermahsul hisoblanadi.

70-yillardagi yozuvchi novellalarining ijtimoiy yo'nalishdagi asosiy belgi-realizm va tanqidiy realizmdir. Ikkinchi to'plamda aks etgan muammolar ko'lamini keng va turlichadir. Shuningdek, hikoyalar yozilish turi

(janri) bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. Mavzusiga qarab, hikoyalarni 4 guruhga bo'lish mumkin: 1. Ayol taqdiri va baxti 2. Siyosiy hikoyalar 3. Tarixiy-afsonaviy asarlar 4. Eksperimental (tajriba) hikoyalar.

Bu to'plamda hind ijtimoiyligida oilaning inqirozga yuz tutish masalasi birinchi o'rinda turadi. Bulardan tashqari uning juda ko'plab turli janrdagi hikoyalari nashrdan chiqdi. Ularda asosan yoritilgan qahramonlar timsolida sadoqatli bo'lish, yuksak ma'naviyatga intilish, adolatparvarlik hislatlari milliy bo'yoqlarda aks ettirilgan, shuningdek shaxs o'zligi va jamiyat oldidagi ma'naviy burchi, ma'suliyatini ayollarning nozik va chuqur izzatoblari orqali yoritib beradi.

A.Pritam 1966-yilda "Nagmani" jurnaliga asos solib, shu yerda ancha vaqt ishlaydi. Uning adabiyotdagi samarali ishlari uchun, bir-qancha mukofot va unvonlar bilan taqdirlashadi. Uning o'zbek tiliga tarjima qilingan bir-qancha hikoyalari mavjud: "Bhangra", "Oydin tun" she'rlari 1958-yili "O'zbekiston hotin-qizlari" jurnalida, "Sharq yulduzi" jurnali sahifalarida 1961-yili "bir savol" (romandan parcha) va boshqa bir qator asarlarini ko'rsatishimiz mumkin. Uning asarlari bilan o'zbek kitobxoni dastlab 1958-yili tanishdilar. Shu yili "Hindiston yozuvchilarining hikoyalari" to'plamida uning "Bir necha yil avval" hikoyasi bosilib chiqqan edi.

1.2 Amrita Pritamning hikoyanavisligi.

Hikoya janri Amrita Pritam ijodining muhim qismi hisoblanib, ushbu janr

yozuvchining ishchanligi va yangi hodisalarga tez munosabat bildirishi, eng muhim muammolarni ko'tarishi sababli 40 – yillardayoq uning e'tiborini o'ziga tortgan edi.

Yozuvchining ijodiy merosida 10 hikoyalar to'plami bo'lib, ulardan birinchisi 1943 – yilda “Chhabbi varxe bad” (“26 yil o'tgach”) nomi bilan chop etilgan¹. O'zining dastlabki to'plamlarida yozuvchi o'zini sentimantalroq va emotsionalroq namoyon qiladi.² Kelgusi to'plamlar 50 – 60 – yillarida – Amrita Pritam uchun ham romannavis, ham novellanavis sifatida eng mahsuldor bo'lgan, adiba realistik prozasi nafaqat panjoblik tanqidchilar, balki boshqa hind tillarida ijod qiluvchi adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga tortgan yillarda nashr etiladi. 50 – 60 – yillar davomida Amrita Pritam romanlar, ularning obrazlar tizimi ustida faol ishlaydi, bu esa keyinchalik uning novellanavisligida obrazlarning o'ziga xosligiga sabab bo'ladi.

Panjobda realistik hikoya janri rivojiga Charan Singx Shaxid, Gurbaxsh Singx, Nanak Singx va Sant Singx Sekxon kabi so'z ustalari o'zlarining jiddiy hissalarini qo'shishgan.

Novellanavislarning katta avlodi vakillardan bo'lgan Gurbaxsh Singx hikoyalarining asosiy mavzusi muhabbat va uning turli xil ko'rinishlari bo'lgan. Xuddi Tagor kabi Gurbaxsh Singx muhabbatni “xudo bergan baxt – saodat” deya hisoblagan va ayollarning qizg'in himoyachisi bo'lgan.¹

40 – yillarga kelib hikoya panjob yozuvchilarining sevimli janriga aylangan bo'lsa, 50 – 60 – yillarda ushbu janrning jadal rivojlanishi kuzatiladi.

Eng avvalo panjob hikoyachiligining rivojlanishiga folklor, shuningdek drama va poeziya (ayniqsa lirika) ta'sirini qayd etib o'tish lozim. Moxan Singx, Sant Singx Sarna, Amrita Pritam, Prabxdjot Kaur hikoyalarida lirika elementlarini oson payqash mumkin. Prozada lirik asosning rivojlanishiga Charan Singx Shaxid asos solgan.

Ayol novellanavislar (Prabxdjot Kaur, Dapip Kaur Tivana, Adjit Kaur,

1. Xodjayeva T.A. “Художественная проза Амрити Притам” монографиya. T-2007.

2. 26 лет спустя (1943), Свячка ключей (1944)

Surdjit Sarna) orasida realistik hikoyalar muallifi Amrita Pritam yetakchi o'rin egallaydi. Amrita Pritam Kartar Singhom Duggap, Navtedj Singx bilan birgalikda hind adabiyotidagi shaxsning ma'naviy tiklanishi va yuksalishi maqsadiga xizmat qiluvchi progressiv yo'nalishni takomillashtiradi.

Amrita Pritam hikoya janrida nafaqat asosan o'z she'rlari va romanlarida ustunlik qilgan "ayollar" mavzularini davom ettiradi, balki mustaqillikdan keyingi hind voqe'ligining turli xil hodisalariga murojaat etadi, panjob novellanasligini ijtimoiy turmushdagi mavjud kamchiliklarni fosh etish va aks ettirishning yangi vositalari bilan boyitadi, psixologizmning kelgusi rivojiga jiddiy hissa qo'shadi.

Amrita Pritamning 60 – 70 yillardagi "Qoncho'p barglari" (1973), "O'sha inson, o'sha ayol", (1974), "Mening sevimli hikoyalarim" (1975) to'plamlariga jamlangan novellalari katta ko'lamdagi masalalarni aks ettiradi¹. Ularda Amrita Pritam o'z xarakteri, taqdiriga ko'ra turli xil bo'lgan ayollar obrazlarini aks ettiradi, ammo aksariyat romanlardan farqli tarzda – bular o'z vatani - Panjob taqdiriga daxl qila olmaydigan oddiy ayollar: ona, yor, kelin, singillardir.

Birinchi guruh hikoyalariga "Vo aorat" ("O'sha ayol"), "Apna kartav" ("O'z burchi"), "Dhanno" kiradi. Agar "Mening sevimli hikoyalarim" to'plamidagi hikoyalarida ayollar ahvoli muammosi asosan hind jamiyatining olg'a rivojiga to'sqinlik qilayotgan eskilik sarqitlarini bartaraf etish planida hal etilgan bo'lsa, bu to'plamda Amrita Pritam ayolning axloqiy prinsplarini belgilab beruvchi chuqur, sababiy hodisalarni ochgan holda, ayol qalbi, o'z romanlaridan farqli tarzda oddiy hind ayollari, psixologiyasiga nazar soladi.

Amrita Pritamning tematikasi va obrazlar talqini bo'yicha oldingilar bilan ko'plab umumiy jihatlariga ega bo'lgan "Mening sevimli hikoyalarim" to'plamidagi asosiy muammolarni ko'rib chiqish, uning novellanasligining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Barcha hikoyalarni mavzu jihatidan uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ayol taqdiri, ayol baxti haqida hikoyalar;

¹ Ходжайева Т.А. "Художественная проза Амрити Притам"

2. Inson va yozuvchi burchi haqida hikoyalar;

3. Falsafiy hikoyalar.

“Karmavali” (“Baxtli”), “Guliana da kxat” (“Guliana xati”) va boshqa hikoyalar faqatgina hind o’quvchisini tashvishlantirmaydigan jiddiy ma’naviy – axloqiy muammolar: ma’suliyatlilik, o’z – o’zi, jamiyat oldidagi halollik, vijdon va burch masalalarini ko’taradi. Falsafiy asoslilik, psixologizm, deyarli butunlay sujjetdan mahrumlik “Pandj bxeenan” (“Besh singil”), “Dxuan te agg” (“Olov va tutun”), “Lal mirach” (“Qizil qalampir”), “Adjnabi” (“Begona”) va b. hikoyalarning o’ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Adiba hikoyalarida drama ta’siri, bu ta’sirni kiritish an’analari hind novellnavisi Ch. Sh. Gulerga oid, bir muncha seziladi, ammo ular unchalik jiddiy emas (“Besh singil”, “Uchinchil ko’z: nuqtai nazar», “Uchrashuv”).

“Badbo’y” - bugungi kungacha mavjud bo’lgan eskirgan hind odatalari haqidagi hikoya nomi shunday. Ulardan keluvchi chirish hidi, dahshatli badbo’ylik – bularning barchasi hikoya nomida mujassamlashgan. Yoki “O’rmon ildizlari”. Bu holatda sarlavha hech qanday ma’noga ega emas. Nom bevosita qizni boshini gangitish uchun choyga qo’shiladigan, sevib qolishga majburlaydigan ildizlarga ham, Hindistonning ko’plab qishloq joylarida saqlanib qolgan, insonlar ongiga juda chuqur singib ketgan bid’at va xurofotlar ramzi sifatidagi ildizga ham oid bo’lishi mumkin. Ularni zaiflashtirish va yulib tashlash uchun juda ko’p kuch va vaqt talab etiladi. Amrita Pritam uchun nom, ism har doim teran mavzularni yaratish bilan bog’liq bo’lgan epigraf bo’lgan.

Amrita Pritam so’zning ma’no tarkibiga tayangan holda so’z keng mazmunni egallashiga, fikrni ifodalashning mukammalligiga erishishga intilgan. Adiba sarlavhalarda voqe’a va voqe’a haqidagi fikrlar bilan birgalikda, personaj xarakteri va xarakter g’oyasini tutashtirishga muvaffaq bo’lgan.

Novellnavis Amrita Pritam syujetlar va shakllarning xilma – xilligi bilan ajralib turadi, bu muallifning adib maqsadini yanada aniq ifodalash imkonini beruvchi yangi vositalarni topishga intilishi bilan bog’liq.

Shu sababli Amrita Pritamning biz realistik deya hisoblaydigan badiiy

metodlari korrektirovkaga muhtojdir, chunki uning aksariyat hikoyalari uning realistik metodining psixologizmi haqida dalolat beradi.

1. maishiy psixologik hikoya,
2. psixologik ijtimoiy hikoya,
3. falsafiy hikoya - mulohaza,
4. hikoya – mulohaza,
5. “ong oqimi” ruhidagi hikoya,
6. hikoya – she’r.

Amrita Pritam hikoyalari sof va intim intonatsiya, nozik ayollik didi bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida voqe’likning realistik aks ettirilishi romantik bo’yoqning ko’p emasligi va shaxs hamda jamiyat aloqalari tagma’no orqali ochilishi, katta ijtimoiyot esa tushunarliklikka yo’naltirilishi bilan belgilanadi. Amrita Pritamning realistik bitiklarida asosan o’sha paytda hali panjob adabiyotida keng rivojlanmagan etik muammolarni aks ettirishning assosatsativ usuli mavjudligini qayd etib o’tishimiz lozim.

Amrita Pritamning 60 – 70 – yillardagi hikoyalarida nafaqat insonlar xarakteri, balki davr spetsifikasi va insonlar psixologiyasi yuzaga keltirgan ziddiyatlar ham o’z aksini topgan.

50-60-yillar A.Pritam ijodi uchun sermahsul bo’ldi. Bu davrga kelib shoiraning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari uzil-kesil shakllandi va uning nasriy asarlari-romanlari, hikoyalari va adabiy-tanqidiy maqolalarida o’z aksini topdi. “Doktor Dev” (1949), “Qafas” (1950), “Yopiq eshik” (1961) Romanlarida muallifning diqqat markazida o’z taqdirini o’zi hal etishni anglagan, jamiyat hayotida faol qatnashish borasida ham o’z huquqini tushungan ayollar obrazi turadi. Yozuvchining 60-yillarda yozilgan “Nagmani” (1964), “Yer, dengiz va chig’anoqlar” nomli (1965) romanlarida ayol tasvirini yaratishda an’anaviy ifoda usulidan birmuncha uzoqlashish seziladi.

U bu davrda ilk asarlariga nisbatan o’z qaxramonining ichki dunyosiga, ruhiyatiga yanada chuqurroq kirib, ularning yashash tarzini yanada ta’sirchan lavhalarda ifodalab beradi. A.Pritam 60-yillarning oxiri va 70-yillarda yillarda

yozilgan asarlari mavzusining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. “Musofir” (1968), “Sayyoh” (1971), “Suvdagi chiziq” (1974), “Ularning tarixi” (1976), “Bu haqiqat” (1977), “O’n uchinchi quyosh” (1978) va boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlarda vatanga muhabbat, hayot ma’nosi, yoshlar taqdiri kabi masalalar yoritilgan.

A.Pritamning birinchi hikoyalar to’plami (26-yil o’tib) 1943-yilda chop etildi. Ilk to’plamlarida an’anaviy Panjob hikoyachigida bo’lganidek, ehtiroslilik (sentimentalizm) kuchli edi. Keyingi to’plamlari, asosan 60-70- yillarda chop etilib, yozuvchi uchun bu davr sermahsul hisoblanadi.

70-yillardagi yozuvchi novellalarining ijtimoiy yo’nalishdagi asosiy belgi-realizm va tanqidiy realizmdir. Ikkinchi to’plamda aks etgan muammolar ko’lami keng va turlichadir. Shuningdek, hikoyalar yozilish turi (janri) bo’yicha ham birbiridan farq qiladi. Mavzusiga qarab, hikoyalarni 4 guruhga bo’lish mumkin: 1. Ayol taqdiri va baxti 2. Siyosiy hikoyalar 3. Tarixiy-afsonaviy asarlar 4. Eksperimental (tajriba) hikoyalar.

Bu to’plamda hind ijtimoiyligida oilaning inqirozga yuz tutish masalasi birinchi o’rinda turadi. Bulardan tashqari uning juda ko’plab turli janrdagi hikoyalari nashrdan chiqdi. Ularda asosan yoritilgan qahramonlar timsolida sadoqatli bo’lish, yuksak ma’naviyatga intilish, adolatparvarlik hislatlari milliy bo’yoqlarda aks ettirilgan, shuningdek shaxs o’zligi v jamiyat oldidagi ma’naviy burchi, ma’suliyatini ayollarning nozik va chuqur iztiroblari orqali yoritib beradi.

A.Pritam 1966-yilda “Nagmani” jurnaliga asos solib, shu yerda ancha vaqt ishlaydi. Uning adabiyotdagi samarali ishlari uchun, bir-qancha mukofot va unvonlar bilan taqdirlashadi. Uning o’zbek tiiga trjima qilingan bir-qancha hikoyalari mavjud: “Bhangra”, “Oydin tun” she’rlari 1958-yili “O’zbekiston hotin-qizlari” jurnalida, “Sharq yulduzi” jurnali sahifalarida 1961-yili “bir savol” (romandan parcha) va boshqa bir qator asarlarini ko’rsatishimiz mumkin. Uning asarlari bilan o’zbek kitobxoni dastlab 1958-yili tanishdilar. Shu yili “Hindiston

yozuvchilarining hikoyalari” to’plamida uning “Bir necha yil avval” hikoyasi bosilib chiqqan edi.

A.Pritamning biz ko’rib chiqmoqchi bo’lgan hikoyalarida obrazlar asosan ikki toifaga bo’linadi. Bular sevgi-muhabbatni tarannum etuvchi va insonning chuqur ichki his-tuyg’ulari, ruhiy holati va qarashlari bilan bog’liq.

Adabiyotshunoslikda “obraz” deganda inson ongida inikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so’z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi.¹ A.Pritam obrazlari ham xuddi shunday hayot bilan chambarchas bog’langan bir tizimdek, namoyon bo’kadi. Biz buni uning hikoyalarida ko’ramiz.

Biz ko’rib chiqayotgan A.Pritamning dastlabki ikki hikoyasida “Bir qiz bir jom” va “Suyaklar va gul”da ayol obrazi, uning chuqur ma’naviy olamini ko’ramiz. Keying ikki hikoyasi “Qizil qalampir” va “Suhbat”da bo’lsa ayol obraziga qaraganda insonning ruhiy holati, hayot mazmuni ko’proq talqin qilingan.

Adabiyotshunoslar fikricha badiiy asar yaratish uchun qobiliyat shubxasiz zarurligini etirof etgan uchta shartni ko’rsatadilar:

- 1) muallif predmetga axloq nuqtai nazrdan to’g’ri munosabatda bo’lishi kerak;
- 2) bayon tushunarli yoki shaklan go’zal bo’lishi muhim, bularning ikkisi ham bir xil ma’noni anglatadi;
- 3) samimiyat, ya’ni san’atkor o’zi tasvirlanayotgan narsani yolg’ondakam emas, balki chin dildan yaxshi ko’rishi yoki undan nafratlanishi lozim².

Amrita Pritamning “Ek larki ek jam” (“Bir qiz bir jom”) hikoyalar to’plamida 10-ta hikoya jamlangan bo’lib, u dastlabki yonda olib yuriluvchi kichik xajmdagi kitobdir. Kitob 1963-yilda Dehlida “Mashvara bukdpust books” nashriyotida bosilib chiqiladi.³

¹ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. T.: G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977, 101 b.

² Tolstoy L.N. “Что такое искусство?”-М.: Современник 1995 117 b.

³ В.Коткин, (А.Притам) «Женщина и кубок». Ж. «Азия и Африка сегодня», М.:1968.№5 (Rus tilida).

II . Bob. Amrita Pritam hikoyalarida sevgi va hayot masalasi.

2.1. Amrita Pritamning “Bir qiz, bir jom” hikoyasida ayol obrazi.

Bu bobimizning asosiy maqsadi yozuvchining tanlab olingan to'rt hikoyasini tahlil qilib yoritishdan iborat. Ularni tarjima qilib tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni tuzilishiga qarab ikki guruhga bo'ldik. Dastlabki ikki hikoyada asosan ayol obrazi va sevgi muhabbat asosiy g'oya qilib olingan. Bundan tashqari obrazlar orqali o'zlikni anglash, ruhiy poklik kabi tushunchalar ifodalangan. Keying ikki hikoyada esa ko'proq hayot mazmuni va insonning chuqur ichki olami yoki fan tili bilan aytganda psixalogiyasi ifodalangan. Bularda ham sevgi muhabbat va ayol obrazi mavjud, lekin muallif ular orqali inson va uning hayoti ochib berilgan.

Hikoyaning nomi “Ek larki ek jam” (“Bir qiz, bir jom”) bo'lib, u real voqealarga asoslangan bo'lishiga qaramay, badiiylik sezilib turadi.

A.Pritam hikoya orqali ayollarning jamiyatda tutgan o'rnini shu davrdagi ayollar taqdiri, muhabbat va unga bo'lgan sadoqat, jasorat timsollari, shuningdek o'zi asli sevgi nima ekanligi, sevgining qanday bo'lishini tushuntirishga harakat qilgan. Albatta hozirgi kunda ijtimoiy nuqtayi nazardan qaralganda ayollarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgargan. Lekin muallif yashab ijod qilgan davr mutlaqo boshqacha bo'lgan. Shuning uchun o'sha davr muhiti bilan taqqoslasak bu juda to'g'ri yondashilganligini bilishimiz mumkin. Hikoya asosan ikki bosh obrazlar rassom va Tunilar atrofida qurilgan. Bu ikki obrazlarga tavsif va ta'rif beradigan bo'lsak, aniqrog'i muallif tomonidan berilgan tavsifga ko'ra, Tuni o'rtahol oiladan chiqqan sodda bir qiz ya'ni o'rta tabaqadan, u judayam ziyoli bo'lmasa ham aqilli dono qiz shuningdek iboli, farosatli qilib ko'rsatilgan. Bundan tashqari tuni chiroyli qiz bo'lib, mehnatkashligi muallif tomonidan juda mohirona tasvirlangan.

Lekin uning asosiy kamchiligi yoki zaif tomoni uning faqirroq oiladanligi va otasining boy sudxo'rlardan qarzlarning mavjudligidir. Aynan mana shu holat Tunining o'z erkini cheklab qo'ygan edi. Bu badalni to'lash Tunining zimmasiga

kelib tushgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri o'sha davr muhiti shuni taqazo qilardi. Ayollar qadr qimmatini oddiy bir buyumchalik qadrlanmas, ular arzimay pulga o'zgariga xizmat qilish uchun yoki turmushga berib yuborilardi edi. To'g'ri bu davrda Osiyoning juda ko'p xududlarida ayollarning qismati qismati xuddi shunday edi. Yosh qizlar juda erta turmushga chiqarilardi, ular go'yoki sotilardi edilar. Ba'zida turmushga chiqarish bu bir oddiy vosita bo'lib qolardi, asosiy maqsad, oila manfaati, boylik, yoki nochorlikdan qutulish bo'lib qolardi edi.

“Bir qiz, bir jom” hikoyasining asosiy qahramoni, bosh obraz Samesh Nanda hisoblanib, u mohir rassom, ziyoli, oliyjanob inson. Shuningdek Amrita Pritam unga ta'rif berarkan, uning o'ziga to'q qatlamdan ekanligini, uning chizgan rasmlaridagi sodda uslubni, va shu uslub orqasida juda katta ma'no mazmun yotganligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari uning qalbida muhabbat bilan yashashini, o'z sevgisi uchun butun umrini bag'ishlaganini muallif ko'rsatib olgan.

Amrita Pritam o'z hikoyasida bu ikki obrazga juda mohirona ta'rif bera olgan. Ular orqali haqiqiy sevgi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatib olgan. U hikoya orqali asosiy g'oya ayollar taqdirini qo'ygan, undan tashqari sevgi nima ekanligini tushuntirishga harakat qilgan.

Hikoyaning kirish qismida muallifning o'zi ishtirok etadi. Ya'ni muallif hikoyani real voqealar asosida rivojlantirgan bo'lib, unda o'zi ham ishtirok etgan. Unda muallif aytadiki, rassomning ko'rgazmasiga tashrif buyurganda hech ham afsuslanmaganini bu ko'rgazma juda ajoyib o'tganini ta'kidlaydi. Boshida aytilganidek muallif rassomning ko'rgazmasida ishtirok etib, u yerdagi ikki asar va ularning tagiga yozilgan o'sha so'zlarni ko'radi, ya'ni bular:

Buning tarjimasi *"Ikki yarimta barg, bir yarimta barg"* va *"Bir qiz bir jom"*.

Hikoyada ko'p asosiy qo'llanilgan narsa o'xshatishdir. Yuqorida keltirilgan jummalarda ham asl ma'no aynan bir qiz Tunining o'ziga o'xshatilgan. Amrita Pritam o'xshatishni juda mohirona qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Oddiy tog'lik qizlarni tasvirlab berishda nega aynan choy o'simligidan foydalanilgan? Hindistonda choyning juda ko'p turi va navlari mavjud bo'lib, u juda qadimdan to bugungacha juda sevib istemol qilinadi. Choyning bu turining aynan g'uncha bo'lib ochiladigan guli va uning ostida mayin va kichkinagina juft barglari bo'ladi va ulardan juda qimmat va sifatli choy olinadi. Muallif tomonidan Tunini shu g'uncha barglariga o'xshatadi. G'uncha uning chiroyiga, yumshoq va mayin, kichkinagina barglarini qizning samimiy va beg'uborligiga qiyoslaydi. Bu faqat muallif tomonidan qizning tashqi ko'rinishi, hislatlarini ochib bergan edi. Suratda qizning chiroyini faqat bu jihatlari bilan emas, balki Tunining suratini o'zini ifodalash bilan ham ochib bergan. Quyida shunday misralar keltiriladi:

1

Buning tarjimasi: *"Samesh Nandaning suratida tog'lik qizning yuzi yarmidan ham kam ko'rinib turar edi"*. Bu yerda qizning husni haqida gapirar ekan muallif, Tunining husni hatto yarmidan ham kam ko'risa ham juda chiroyli ekanligiga urg'u beradi. Bundan rassomning qanday mahoratga ega ekanligini ko'rsata olgan. Rassomning juda sodda usulda, lekin juda ta'sirchan, ma'noli surat yaratganini ta'kidlaydi muallif. Muallif bu ikki suratlarni ham "yuzi gapiradigan" surat deya ataydi.

Amrita Pritam bu hikoyasida asosiy maqsad va g'oya sevgi va muhabbat mavzusi, ayol taqdiri, ularning jamiyatdagi tutgan o'rni kabi mavzular qamrab olgan. Bu hikoya asosan romantizm va realizm janrlarida yozilgan. Hikoyada ko'proq monolog, dialog qo'llanilgan. Bulardan tashqari hikoyada hikoya ichida hikoya, mubolag'a, istiora san'atlaridan foydalanilgan. Bularga misol keltiradigan bo'lsak, bu hikoyaning nomini o'zi ham juda katta ma'no mazmun kasp etadi. Asosan sharqda sharob adabiyotda ko'p qo'llaniladi, u muhabbat ichimligi, insonning yoki ollohning ishqidan mast bo'lish ma'nolarini bergan. Jom A.Pitamning adabiyotda yangi vosita, yo'nalishi hisoblanadi. Shu yerda ham ko'rinadiki A.Pritam adabiyot san'atlaridan juda mohirona foydalana olgan. Hikoyada rassom jomni o'zining hayotiga uchraydigan qizlarga qiyos qilgan. Ya'ni ular go'yoki shu jom orqali ishq sharobi ichib ko'riladi va juda ko'pi tezda tugab qoladi, deya ta'kidlaydi muallif rassom tilidan. Tuni bo'lsa huddiki hech qachon tugamaydigan jom, uni ichaverasan ado bo'lmaydi.

Hikoya asosan sodda aholi tushunadigan usulda, tilda yozilgan. Buni xalq tili desa ham bo'ladi. Bunga sabab A.Pritam yashagan davar va muhit sabab bo'lgan. XX asrning 40-50-yillari Hindiston va Pokiston xalqlari xayotida katta o'zgarishlar, yangilanishlar davri bo'ldi. Har ikkala davlat ham 1947-yildan mustaqilligini qo'lga kiritdi.¹

Lekin bu davrda oddiy aholi juda katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Ayniqsa ayollar taqdiri juda qiyinchiliklarda kechardi. Muallif ham shu munosabat bilan ayol taqdirini asosiy mavzu qilib olgan. Aynan Tuni obrazi orqali o'quvchi etiborini aynan shunga qaratishga harakat qilgan.

Muallif hikoyasida asosan hikoya ichida hikoya san'atini rassom atrofida qo'llagan, uning tilidan hikoyaning juda ko'p qismi yozilgan. Uning asosiy boshlanish qismi quyidagi misralardan keyin boshlanib ketadi. Ya'ni muallif rassomning har ikki asarini ko'rib shunday baho bergan edi:

¹ G. Hidoyatov11-sinf Jahon tarixi T-2004.

Uning tarjimasi *"Bunday jomni ichish uchun bir umr ham kamlik qiladi"*. Bu bilan muallif rassomning ishiga yuqori baho bergan. Muallif shuni anglab yetgan ediki, oddiygina tasvirlangan ikki surat ortida butun bir inson hayoti yotibdi, uning orzu umidlari, g'am qayg'ulari, quvonchu-shodliklari gavdalangan edi. Bu suratlardagi umr rassom va Tunining ishq muhabbati mevasi asosida yaralganlini muallif keltirib o'tadi.

Hikoya asosan rassom va Tuni o'rtasidagi suhbat asosida davom etadi. Muallif rassomning "Ikki yarimta barg, bir yarimta barg" ni Tunidan bilib olganligini va nega aynan shunday bo'lganini ta'kidlaydi. Muallif rassom tilidan Tuniga shunday baho beradiki biz uni quyidagi misralar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

Bu misralarning tarjimasi quyidagicha: *“U choy barglarini teradi, ikki yarimta barg va bir yarimta barg gapini menga u aytgan edi va unga aytgandimki, u bokira qizdek nihollarning qiz g’unchasidirsan,- juda qimmatli,- bilmaymanki bu choylarni kim ichadi”*. Rassom tomonidan berilgan bu bahoni muallif ajoyib tarzda ko’rsata olgan. Bu yerda asosiy urg’u tog’lik qizlarning barchasi qalbi toza, beg’ubor bo’lishadi, ular huddiki endi ochilgan yangi choy guli g’unchasidek bo’ladi. Yana bir misrani ko’ramiz:

1

Tarjimasi: *“Men u qizni Tuni ismi bilan chaqirardim. Men uning asl ismini noqulaylikdan so’ramagan edim”*. Muallif nega endi qizning ismini keltirmagan? Bu ham muallifning mahoratidandir. Bu bilan muallif birgina Tuni orqali butun qishloq va tog’lik qizlarni huddi shunga monandligini bilishimiz mumkin. Rassomning Tunining ko’proq so’zlariga mahliyo bo’lib qolganini keltirgan. Misol uchun u quyidagi gaplarni aytadi:

2

Tarjimasi: *"Qayerdandir u bunday so'zlarni aytardi,- Babu! Bu ham qaysidir bir insonning ko'z yoshlaridir"*. Bu so'zlarini aynan yomg'irga nisbatan aytgan. Rassom aytganidek Tuni bu so'zlarni hech qayerda o'qimagan bo'lsa, uni faqat ba'zi bir Panjob adabiyotlarida ko'rishimiz mumkin. Muallif shunga urg'u berganki bu hududlarda aholi o'zaro aloqada bo'lib, ularning tili bir biriga yaqin bo'lgan. Rassomning ba'zan bergan savollariga ham Tuni juda oqilona javob berardi. Rassom unga Tuni mening hayotim juda qaynoq, sen uni icha olmaysan, og'zing kuyib qoladi deb aytadi. Buning ma'nosi rassom oldin ham boshqa qizlar bilan uchrashganiga urg'u berib aytgan, va o'zini yaxshi odammasligini ta'kidlagan. Unga Tuni o'z javobini beraoladi.

1

Tarjimasi : *"Men uni puflab puflab ichaman babu"*. Bu yerda ham muallif oddiy qishloq qizlarining juda soddaligi, beg'uborligiga etibor qaratgan. Rassom ham Tuni bilan o'z hayotida uzoq masofani bosib o'ta olishi mumkinligi tushunib yetadi. Lekin taqdir ularni ayiradi. Muallif bu hodisani shu davrning voqealariga bog'lashga harakat qilgan. Hikoyaning ayanchli yakuni bunga misoldir. Hikoyaning eng ta'sirli nuqtasi ham ayni shu yarda ko'rsatilgan. Shuningdek yana bir ta'sirli joyi shuki, rassom shundan so'ng boshqa ayollar bilan hayotini bog'lashga harakat qilmagan. Rassom muallifga o'zi haqida hikoya yozsa ismini keltirmaslikni so'raydi. Qachonki u vafot etsa ismini keltirishni so'raydi.

Hikoyaning tahlilidan xulosa qilsak ayolga bo'lgan muhabbat, sadoqat eng pokiza hislatlaran ekanligi oydinlashadi. Bunda bir yigitning bir qizga intilishi, sodiqligi uning undan nimanidir izlaganini bildiradi. Bu izlagan narsa sevgida haqiqat edi. U haqiqiy muhabbatni topgan edi va undan haqiqatni izlagan. Asil sevgi qanaqa bo'lishini muallif o'z hikoyasida ko'rsatishga harakat qilgan.

2.2. Amrita Pritamning “Suyaklar va gul” hikoyasida sevgi masalasi.

A.Pritamning “HaDDiyaN aor phul” (“suyaklar va gul”) hikoyasi romantizm va realizmda yozilgan hikoyalaridan biridir. Shu bilan birga badiiylik jihatlari ham bor.

Hikoyaning bosh obrazlari asosan ikkita. Raj va Unu. Lekin Raj bu yerda asosiy qahramon ya’ni bosh obraz hisoblanadi. Chunki hikoya asosan Raj va uning atrofidagi voqealarga asoslanib qurilgan. Raj obraziga tavsif beradigan bo’lsak, u oddiy odam, mashinasi borligi va uning gaplaridan o’ziga to’q, ziyoli ekanligini bilishimiz mumkin. Muallif Raj obrazini ochib berishda uning tashqi ko’rinishi va uning yaqinlarini ko’rsatmagan, chunki hikoyaning mazmunidan bunday narsalar asosiy o’rinda turmaydi. Insonning ichki his-tuyg’ulari, ichki dunyosi, uning ruhiyati, qalbi asosiy o’ringa chiqadi. Shunday ekan u qanday odam edi? U toki shu kungacha go’yo dinsiz va hudosiz yashayotgan odamdek edi. U shu paytgacha biron bir iloh yoki mabudga, xudoga sajda qilmagandi. Bunga hikoyada misol keltirsak:

1

“Rajning boshi egildi. Shiva bilan, Parbati bilan yoki boshqa bionta mabud yoki mabuda bilan uning umuman muhabbat rishtalari yo’q edi”. Bundan ko’rinadiki, Raj unchalik toat ibodatga ishonmaydigan odam bo’lgan, toki uning hayotini, fikrlarini o’zgartirishiga sabab bo’lgan kungacha. Rajda sevgi muhabbat, mehr tuyg’u va hissiyotlar ancha kech uyg’onadi. U oldin bu hissiyotlarsiz zulmatda yashaganligini o’zi ham his qilgandi.

Ikkinchi obraz Unu isimli qiz, u qo'shiq aytadi,Raj bilan uchrashguncha u qo'shiq kuylab mashhur bo'lgan edi. Ununing mashhurligi quyidagi misollarda ko'ramiz:

1

“Dehqonlarning bir yig'ilishida Unu qo'shiq aytayotgan edi. Raj uning qarshisida o'tirardi. So'ng yig'ilish raisi choy ichish paytida Rajga Ununi maqtagandi”.

2

“Shunday qilib o'tgan yil davomida uning nomi shuhrat qozonishni nasib qilgan edi. Hindistonning bir qancha san'at arboblari yig'ilayotganda Panjobdan Unu saylangan edi”.

3

“Unu Panjobcha qo’shiqlarni yosh qizlarga o’rgatadi. Bu davlat assambleya gazetalarida faxr bilan chop etiladi. Bularning barchasi Unuga yanada ko’proq shuhrat olib kelgandi”.

Misollardan ko’rinib turibdiki, shu davrda Unu Panjobda anchagina tanilga edi. Unu Rajni yaxshi ko’rib qoladi. Uning qalbi toza va mehribon qizligi ko’rinib turadi. U haqiqatgo’y edi, Raj Ununi shu hislatlari uchun ham yaxshi ko’rib qolgandi. Buni quyidagi misolda ko’ramiz:

1

“Raj u sen uchun yaxshi bo’lmaydi, lekin u mening qalbimga keldi. Koshki bugungi bu safarda sening o’rningda u bo’ladi.... Raj tezda Ununing peshonasidan o’pib oldi va keyin uning ikkala kaftini ko’zlariga bosdi. Sening haqiqatgo’yligingni men yaxshi ko’raman Unu”.

Hikoyaning asosiy mavzusi muhabbat orqali o’zlikni anglashdir. Ikki xil sevgi orqali ya’ni, xudoga va ayolga bo’lgan sevgi bilan bir odamning hayoti mavhumlikdan borlik va hayotga qaytadi. Dastlab u xudoni taniydi. Bu orqali u hayotning asl mohiyatini anglay boshlaydi. Uning ismi Raj. U o’zligini anglay boshlaydi. Nima uchun yashayotganini, hayotning asl mohiyatini anglay boshlaydi. Shundan so’ng u bir qizni Ununi sevib qoladi. Hikoyaning asosiy mavzularidan biri ham ayolga bo’lgan sevgi-muhabbat, sadoqatdir. Hikoya bir kunda bo’lgan voqealar asosida qurilgan. Bir kunlik voqealar Rajning butun o’tgan hayotini o’zgartiribgina qolmay, u kelgusi hayotda yangitdan tug’ilganday bo’ladi. Muallif ham bir qancha yillarda tushunmagan, anglab yetmagan narsalarni, qanday qilib bir kunda tushunib yetishi mumkinligini ko’rsatgan. Bundan tashqari inson hayoti hikoyada asosiy o’ringa chiqadi. Hikoya orqali muallif XX asr insonlari hayotini, ularning ko’pchiligi uchun yetishmayotgan narsalar, bularning barchasini ularga yetqazish va boshqalar to’laqonli ochib berilgan. Yuqorida aytganimizdek Raj o’z rafiqasini uch yilda tushunib yetadi, ya’ni uning qalbini, hislarini anglay oladi. Huddi shunday u Ununing qalbini egallaydi. Unga bunga faqat bir kungina kerak bo’lgan edi. Buni quyidagi misolda ko’ramiz:

“Shu tariqa u qizil sochli bilan butun hayotini birga o'tqazdi. Raj o'ylardi; qanchalik yaxshi bo'ldi, agar u butun hayotini kezib chiqqanda u qizning ko'nglining eng chuqur tubiga shunday tusha oldiki, shunchalik bir kechada u Ununi tushuna olgandi”. Bundan ko'rinadiki hayotda insonni tushunishi uchu yarim umri ba'zan butun umr ham kamdek bo'ladi, ba'zan bo'lsa bunga yuqoridek, bir kun, bir kecha ham kifoya qiladi. Buning uchun inson dastlab o'z qalbini, o'zning ichida nimalar kechayotganini tushuna olishu kerak bo'ladi. Raj ham o'tib ketgan yarim umrini bekor ketganini, u go'yoki qorong'i zimistonda yashaganini o'zi ham tan oladi.

Hikoyadan yana shuni bilishimiz mumkinki, muallif nimanidir tushuntirishga harakat qilgan. Buni Raj obrazi orqali ko'rsatishga harakat qilgan. Bu insonni o'zini o'zi anglash, nima uchun hayotda yashayotganini tushunib yetishni muhim masala qilib qo'yadi. Ikkinchi bosh obraz Unu va mandir ichidagi sanam va but haykallar Rajning hayot haqidagi fikrlarini butunlay o'zgartira olgan. Yana bir misolni ko'rib chiqamiz:

“Tana a’zolari salqinlikdan Rajga shunday tuyuldiki, go’yo u ham hozir bir haykal bo’ladi va Shivaning yoniga, Parbatining yoniga haykal bo’lib turadi. U bir bor tashqi dunyo haqida o’yladi va his qildi kim ham uni chaqirsin, va u hozir shu yerda turishga tayyor edi, yillar uchun...asrlargacha”.

Oldin aytilganidek Raj mandir ichidagi haykallarni ko’rib, umrida umuman qilmagan toat ibodatni shu yerda qiladi. Uning qalbida go’yoki hudo hozirgina tug’ulgandek edi. U sajda qilib, hozirgi misolda ko’rganimizdek haykal bo’lib uyerda qolishga ham rozi bo’ladi. Muallif bu bilan o’quvchini aynan shu sanam va mabudlarga sig’inishga chorlamagan, faqat inson o’z qalbi nimani istayotganini tushunishga yordam bergan.

Bu bir kunlik sarguzasht Rajga hudoni anglash bilan birga o’z muhabbatini topishiga yordam beradi, balkim undan ayiradi ham. Hozir Rajning Ununi qanday bir kechada sevib qolganini ko’rsak. Oldin aytganimizdek ular ikkalasi shu mandirda qoladilar. Bu yerda ular suv sepishib, uyqulari kelmay birga

suhbatlashishadi. Tun juda chiroyli edi. Manzara, tovushlaru-turli hid, iforlar barcha-barchasi ajoyib edi. Buni muallif hikoyada quyidagicha ifodalagan:

1

“Yigirma qadamcha uzoqlikda yuqoridan tushayotgan suvning ovozi va o'rmon gullarining hushbo'y isi oy nurlariga aralashib kelardi”.

Balkim shundan tasirlanibmi Raj va Unu juda baxtiyor edilar, ulardagi oldingi horg'inlikdan asar ham yo'q edi.

Muallif bu hikoyasida inson hayoti uchun juda muhim bo'lgan masalalarni deyarli barchasini ko'tarib chiqa olgan desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Shu yerda biz Raj va ununing o'zaro suhbatlariga murojaat qilamiz. Raj Unudan ibodatxonada rohib ularga ona Parbati nima so'rasangiz u albatta beradi degan gaplariga ishora qilib, nima so'raganini so'raydi. Unu unga shunday deydi:

2

“Men bechora Parbatini g'amgin bo'lmaslikni hohlayman”. Buni eshitib Rajning qalbida muhabbat kurtak yoza boshlagandi. Shundan so'ng ular ikkalasi bir birlarini hayotini gapirib berishdi.

Muallif Raj obrazi orqali hayot falsafasi to'g'risidagi qarashlarini ko'rishimiz mumkin; Raj Unuga shunday deydi:

1

“Unu! G'am ham bir nashaga o'xshaydi. Agar kimdakim unga odatlansa, u barcha harakatlari bilan butun g'am tashvishlarni yig'ib oladi”. Bu bilan u insonning kelgusidagi hayoti uning ishlari, harakatlari va boshqalarga bog'liq bo'ladi, yoki kimki g'am-tashvishga yaqin yursa u shunga muhtalo bo'ladi. Biz bularning barchasini A.Pritam hikoyasida ko'ramiz.

Rajning Ununi sevib qolishiga birinchi navbatta albatta Ununing betakror va o'ziga xos hislatlari sabablidir. Ununing bunday hislatlaridan biri uning haqiqatgo'yligi, soddadilligi edi. Unu bir safar Rajga qarab ichidagi kechayotganlarini yashirmay shunday degan edi.

2

“Raj u sen uchun yaxshi bo’lmasada mening qalbimga bu o’y keldi. Qaniydi bugungi safarda sening o’rningda u bo’lsa...”. Unu birinchi muhabbatini eslagandi. Lekin Raj bundan hafa bo’lmaydi aksincha u xursand bo’lib uni yanada ko’proq yaxshi ko’rib qola boshlaydi. Bu yerda ham muallif ayollarning qalbi naqadar nozik ekanligiga, beg’uborligiga va qalbi toza ekanligagi urg’u bergan.

Hikoya doimgidek muallif fikri bilan boshlangan. Hikoyaning boshi va oxiri ham bor. Lekin hikoya so’ngida biroz o’quvchini fikr bildirishga, hikoyani o’zi xulosa chiqarib tugatishi uchun biroz mavhumroq qilib yakunlangan. Asosiy kulminatsion nuqtasi Rajning mandirga kirib kelib, hayotini o’zgartirishga sabab bo’lgan voqeani olib ko’rsatsak bo’ladi.

Hikoya yozilishi jihatidan o’sha davr muhitiga asoslanib, u bilan bog’lashga harakat qilib yozilgan. A.Pritamning hikoyalari juda ko’pi real voqelikka asoslanib yozilgan. Bu hikoyasida ham real voqelik alomatlari ko’p, shuning bilan birga badiiylik ham, ya’ni ijodiy yondashuv borligi ham bilinib turadi. Lekin hikoya sodda, barcha tushunadigan tilda yozilgan. Bu o’sha davr uchun xos edi. Bir vaqtlardagidek faqat ziyolilar yoki rohib-u, kohinlar, ya’ni brahmanlar tushunadigan tilda yozish ancha kamaygandi. Hikoyada oz miqdorda o’xshatish san’ati qo’llanilgan. Boshqa hikoyalarida esa ko’p uchratamiz. Ko’proq dialog shaklda yozilgan, bo’lsada muallif fikri va manolog qisimlari ham bor. Hikoyani realism asosida yozilgan hikoya desa ham bo’ladi, lekin badiiylik mavjud bo’lgani uchun bu turga ham kiritish mumkin.

Tahlilning qisqacha xulosalari. Muallif hikoyasi orqali kitobxonga hayotning asl mohiyati, o’zligini tushunishga va komillikka erishish uchun sevgi muhabbatning o’rni qanday ekanligini ko’rsatib beraolgan. Shu o’rinda ta’kidlab o’tishimiz kerakki, hikoyada barcha voqea hodisalar va hikoyaning asl mohiyatini ochib bergan jarayon ayol obrazi bilan bog’liqdir. Aynan Rajning o’zligini anglashida ham Unu yordam bergani buning isbotidir.

2.3.Amrita Pritamning “Qizil qalampir” hikoyasida sevgi izlash masalasi.

Yozuvchining “Lal mirch” (“Qizil qalampir”) hikoyasi mavzu va mazmun jihatidan oldingi ikki hikoyaga o’xshash. U ham realizm va romantizmga yozilgan. Lekin realizmdan ko’ra badiiylilik alomatlari ko’proq seziladi, u ko’proq badiiy to’qimaga o’xshab ketadi.

Bu hikoya va keyingi “Suhbat” hikoyalari oldingi ikki hikoyaga nisbatan obrazlar yaratishda boshqacha yondashilgan. Oldin obrazlarning ichki dunyosi bilan birga tashqi qiyofasi to’liq ochilgan bo’lsa, bu ikki hikoyada tashqi qiyofa bekitilib ifodalangan. Obraz yaratish, uning xarakter belgilarini tasvirlashda ba’zan yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi, ya’ni portretini chizishdan ham foydalanadi. Ma’lumki, portret tasviri orqali personajlarning tashqi qiyofasi, hayotiy qarashlari, tabiatiyu odob-axloqi, yoshi va boshqa xususiyatlari ham oydinlashadi. Ammo bu hikoyalarda qahramonning tashqi qiyofasi-portreti, kiyinishi va yurish turishiga etibor qaratilmagan, ko’proq uning gap-so’zi, atrofdagilar bilan munosabat-muomalasi, o’y-fikrlarini tasvirlash orqali xarakter yaratilgan.

Hikoyaning bosh obrazi Gopal isimli bir yigit. Hikoyada uning 18 yoshidan to 30 yoshlarigacha bo’lgan voqealar qamrab olingan. U kollej o’quvchisi bo’ladi. U tabiatan juda soda bola bo’ladi, bunda biz uning hayotga bo’lgan qarashlaridan ko’rishimiz mumkin.

Gopal tabiatan juda sodda, ochiq ko’ngil bo’ladi. Lekin u ulg’aygan sari biroz qaysarroq va bir fikrga kelsa unga butunlay yopishib oladigan bo’lib qoladi. U o’rta tabaqadan chiqqan. Dastlab u kollej o’quvchisi bo’ladi. Tashqi ko’rinishini muallif deyarli keltirmagan. Faqat bir joyidagina uning yuzida katta holi borligini ko’ramiz; Unda Gopal radiodan bir qizning gaplarinin eshitayotgan edi. Unda shunday deydi:

“Sening yuzingda qopqora holing ey-ey Syalkotlik yigitcha, -shunda Gopal qizil lablari ustidagi bir katta qora xolini paypaslab ishlab ko’ra boshlaydi. shundan so’ng u Nurjahonga qarata deydi.-zolim har safar bir nechabor Syalkotlik bolalar,Syalkotlik bolalar deysan...ba’zida u joyni Lailpurlik bolalar deb tur”. Gopal o’zini juda yaxshi ko’rardi. Balkim shundan bo’lsa kerak u bazida shunga o’xshash odatlar qilib turardigan bola bo’ladi. Hikoyada Gopal obraziga berilgan ta’riflardan unga faqat uning nimalarni xoxlashi, uning qiziqishlari, uning ko’ngli nimani istashidan qandayligini bilishimiz mumkin. Yuqorida aytilganidek u bir fikrda qattiq turiboladigan qilib tasvirlansada, lekin bu orqali muallif hayotdagi eng muhim masalalarni ochishga harakat qilgan. Obrazni tasvirlashda doimgidek u ko’proq insonning ichki kechinmalari, his-tuyg’ulari asosiy o’ringa qo’yilgan.

Hikoyaning asosiy mavzusi hayotdan haqiqiy sevgini izlash. Buni muallif o'zgacha uslubda bo'lsa ham Gopal obrazi orqali to'laqonli ochib bergan. Bu uslubda kam uchraydigan uslublardan bo'lib, biz A.Pritamning boshqa hikoyalardan bu kabi o'ziga xos va g'ayrioddiy uslubda yozilgan va shakldagi hikoya va asarlarni uchratamiz. Bunga yaqqol misol tariqasida aynan "Bir qiz bir jom", "Muloqot" kabi hikoyalarda ko'rishimiz mumkin. Bu kabi turli rang-baranglikni boshqa urdu-hind yozuvchi va adiblarida kam ko'ramiz yoki uchratmaymiz. Hikoyada shuningdek ijtimoiy masalalar qisman bo'lsada qamrab olgan. Unda bir yigitning o'z sevgisini izlashi zamirida eng muqaddas hisoblangan oila qurish va unga yetishish yotadi.

Hikoya butunlay bir yigit Gopalning "Qizil qalampir"ni izlashidan iborat. Shu o'rinda bir narsaga to'xtalsak. Gopalga yoki muallifga qizil qalampirni timsol qilib olish nega kerak bo'ldi? Qizil qalampirni hususiyatlaridan kelib chiqsak, uning rangi yorqindir, bu qizlarning naqadar go'zalligini bildiradi. Qalampir achchigligi chiroyli qizlarga yetishish qiyinligi, ularni harkim ham "tatib" ko'raolmasligini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Bu ham bir o'zgacha o'xshatishdir. Bu borada muallif quyidagicha fikr bildirgan. Bu yerda Gopalning do'sti orqali ta'rif bergan. Bir do'sti unga it tishlagan joyga qizil qalampir qo'yish kerakligini aytsa, yana biri unga shunday deydi:

1

"Uy iti tishlasa, unda uyda bir chiryli qiz sening yarangni bog'lab qo'ysa...qizlar ham qizil qalampir bo'lishadi". Shu gaplardan so'ng Gopalning hayoliga qizil qalampirni qidirish talvasasi tushib qoladi.

Hikoyada eng ko'p qo'llangan adabiy san'at turlaridan bu o'xshatishdir. Bularga misol qilib biz Gopal obrazidan ko'ramiz. Gopalning tasavvurida qizlar shunday tasvirlanadi:

1

“Shunday qilib Gopal shuni bildiki, qizlar likopchadagi no'xotni saralashga o'xsharkan...jussasi juda kichkina, semiz burunli, novcha, semiz u bu kabi qizlarni

go'yoki no'xotdan mayda toshlarni tergandek bilib olgandi. Eguluvchan shoxga o'xshaydi qizlar. Qizlar xuddi sandal daraxtidek baxaybat bo'ladi. Qizlar xuddi oyning bo'lagidek...Gopal o'ylardi, birortasi ham bo'lmaydi, ulardan birortasi ham bo'lmaydi, menga faqat qizil qalampirdek qiz kerak". Gopalning tasavvurida go'yo qizlarning ko'pi shunday bo'lib tuyulardi. Bularning barchasi uning tabiatiga xos edi. Bu faqat bir bolaning tasavvuridagilar edi. Muallifning mahoratidan ko'rinib turibdiki, bir hayolparast bolaning tasavvurlarini juda yaxshi ochib bergan.

Gopalning tasavvuridagi o'xshatishlardan yana misollar keltirsak:

1

"Ko'zoynakli qizlar Gopalga qizbolaga o'xshab tuyulmaydi. Ularning ko'zlarini ko'rish uchun oldin shishali devordan o'tishga to'g'ri keladi. Gopal aytadiki, u qizlarni ro'yxatdan ham chiqarish kerak". Yana bir misol:

2

“Agar birorta qiz uzun sari kiyib olgan, oyog’iga paypoq kiyib olgan, qo’liga soyabon ushlab olgan bo’lsa, gopal kulib deydi.-Bunday qizlar oz bo’ladi. Ular o’qituvchilardir. Agar talaba matematikadan ojiz bo’lsa, u o’qituvchiga uylansin”. Bu ikki misoldan ko’rinib turibdiki, endi Gopal ularning boshqa hususiyatlari, kiyinishi va yurish-turishiga qarab ham ajrata boshlaydi. Huddi shunga yana bir misol:

1

“Birorta qiz to’q rangli kiyim kiyib olsa yoki qo’llarida judayam ko’p churilar bo’lsa unga ham Gopal derdi. Bu ranglar reklamasi, bo’ldi bunday eski churilar do’konidek qizlarni ko’rsatmang”. Gopalning nazdida go’yoki bunga o’xshash qizlarni ko’pi o’ziga oro berib yurganligi uchun shunday o’ylandi. Ularni ichi qanaqaligini bilib bo’lmaydi deb tushunardi.

Biz A.Pritamning oldingi hikoyalarida ham ko’rdikki bu hikoyasida ham noananaviy uslubda bu san’at turidan mohirona foydalangan. O’xshatishni odatda ko’p adiblar bir xil, odatiy uslubda qo’llashadi, ya’ni oldindan adabiyotlarda bo’lgani kabi o’zgartirmasdan foydalanishadi. A.Pritam bo’lsa qandaydir o’zgartirishlar qilishga harakat qilib yangilik qilishga harakat qilgan. U qizlarning qomatini turli narsalarga o’xshatishdan tortib, ularning xatti-harakatlarini ham biror narsaga qiyoslashga harakat qilgan.

Lekin muallif asosiy maqsad qilib hikoyasida asil muhabbatni izlash, o’zi tanlagan yo’ldan og’ishmay maqsadga erishish mavzusini ko’tarib chiqqan. Gopal obrazi qizil qalampirni o’ziga timsol qilib, uni qidirishni o’ziga maqsad qiladi. Qizil qalampir aslida qiz bo’lib, Gopal uning qanaqaligini hattoki o’zi ham bilmaydi. Buning isboti tariqasida hikoyadan misolni ko’rib chiqsak:

“Qizlar Gopalning kollejida ham, qo’shni uylarda ham, shaxar ko’chalarda ham va boshqa shaxarlarda ham bor edi. Lekin u qanday qizki men o’ylayotgan, Gopal tez-tez shularni o’ylardi”. Ko’rinib turibdiki, u hayolidagi qizni izlaydi, lekin u bu yo’lda ko’pchilikning tanqidlariga, qarshiliklariga va uning ustidan hattoki kulishsa ham qaramay izlashda davom etaveradi. Bu bilan muallif ko’rsatmoqchiki inson asil muhabbatga osonlikcha erishib bo’lmaydi, u bu yo’lda doimo izlanishda bo’lishi kerak. Aslida ham shunday inson hayotidagi barcha nematlar, yaxshi narsalarga albatta izlanish va mashaqqat bilan erishiladi. Zero buyuk bobokalonimiz Zaxiriddin Bobur aytganlarki “Agar insonning kuchi bilimda bo’lsa, bilimning kuchi izlanishdadir”.

Hikoyada Gopal izlaganiga yetishmaydi, lekin topadi. Aslida u taqdirga tan berib, aniqrog’i o’ttiz yoshlaridan so’ng uylanadi va shunda ham u o’ylandiki men topmaganimni o’g’lim topadi deb. U o’g’il ko’rishini taxmin qilib tayyorgarligini ko’radi. Lekin u qiz bo’ladi. Uning qizi ulg’aygach, turmushga berish chog’ida ne ko’z bilan ko’rsinki uning qizi qizil qalampir bo’ladi. Bu hikoya so’ngida shunday aks etgan:

“Shunday qilib uning eshigi oldiga kuyov navkarlar keldi. Uning kuyovi uning poyiga egildi. Uning qizi qizil kiyimga o’ranib olgan edi. U taxtiravonning oldiga borib, uni yupata boshladi...uning qizi butunlay qizil qalampir. Qizil qalampir...qizbola...qizil qalampir...Gopal sezdiki bugun...bugun kimdir uning ko’zlariga qalampir surtib qo’ygan edi”. Shu tariqa Gopal maqsadiga yetgan.

A.Pritamning bu hikoyasi ham boshqa hikoyalari singari sodda va barcha uchun tushunarli tilda yozilgan. Eng ko’p qo’llangan adabiy san’at turlaridan o’xshatish va qiyoslashdir. A.Pritamning hikoyasida reallik ko’proq sezilib turadi va undan so’ng badiiylilik ham kam emas. Shularni inobatga olgan holda “Qizil qalampir” hikoyasini ham realizm, ham badiiy usulda yozilgan hikoya desak bo’ladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, oddiy bir o’smir bolaning o’y-xayollarini ko’rsatib berishning o’zi bir murakkabroqdir. Buning uchun yozuvchida ularni o’rganishi, ularni his qilaolishi kerak bo’ladi. A.Pritam ham bularni mohirona uddalaganini ko’ryapmiz. Uning hikoyasi go’yoki shu bola tilidan yozilgandek. Muallif hayolparast bir bolaning o’z timsolidagi qizni qidishi orqali inson o’z maqsadi sari to’xamay, izlanishda bo’lishi kerakligi, lekin shu o’rinda bu maqsadlar insoniylik va shaxs tushunchalariga muvofiq kelishi kerakligini ochib bergan. Bu yerda asosiy o’rinda baribir, asl sevgini izlash orqali muallif ayollarni biroz bo’lsada ta’riflashga xarakat qilgan. Albatta bu ta’riflar XX asr ayollariga taalluqlidir, shu bilan birga uni hozirgi kundan butunlay farqlab ham ololmaymiz.

2.4.Amrita Pritamning “Suhbat” hikoyasida hayot mazmunini anglash.

A.pritamning “Mulaqat” (“Suhbat”) hikoyasi o‘z ijodidagi eng noodatiysi hisoblanadi. Uni kitobxon bir o‘qishda tushunmay qolishi mumkin. Muallifning bu hikoyasi badiiy to‘qima turidagi hikoyalardandir.

A.Pritamning bu hikoyasida bosh va yagona obraz Jagjit. Muallif uning tavsifini deyarli keltirmagan. Uning kasbi, yoshi va boshqa jihatlari kam yoki deyarli yo‘q. Muallif buni ifodalamaganining boisi insonni ifodalashda uning tashqi qiyofasiyu, darajasi asosiy o‘rinda turmaydi, zero uning boshqa hislatlari, yurish-turishi, xulqi,odobi, ichki his-tuyg‘ulari, qarashlari asosiy o‘rindadir. Shuning uchun hikoyaning mazmunidan qarasak Jagjit hayot tashvishlaridan charchagan bir inson qiyofasida gavdalanadi. Zero muallif jagjitning qanaqaligini bu tomondan ham to‘laqonli ifodalamagan. Faqat Jagjitning gap-so‘zlaridan shuni bilishimiz mumkinki, u haqiqatda hayotning pas-balandi, qiyinchiliklari va sinovlaridan biroz qiynalgan. Bundan ko‘rinadiki kambag‘alroq, moddiy qiyinchiliklardan qiynalib yashaydi

Umuman olganda A.Pritamning bu hikoyasi oldingi hikoyalariga mutlaqo o‘xshamaydi. Zero hikoya mazmun jihatidan va mavzusi jihatidan ham qolga uchta hikoyadan farqlanib turadi. Asosiy farq shundaki uchta hikoyada asosiy mavzu ayollar va sevgi-muhabbat, qisman “Qizil qalampir” hikoyasida hayot falsafasi mavjud bo‘lsa, “Muloqot” hikoyasida butunlay inson psixalogiyasi, falsafiy qarashlar va hayotning mazmun va mohiyati mavjud.

“Muloqot” hikoyasi butunlay yangi shaklda yozilgan hikoya bo‘lib, unda voqelik yo‘q desa ham bo‘ladi. Zamonaviy ya‘ni XX asr ikkinchi yarmida yashagan yosh yigitni o‘z-ozini bilan dialog shaklda berilgan suhbat. Albatta jarayonda shu aniq bo‘ladiki, bosh qahramon o‘z-o‘ziga savol beradi, lekin judayam dilning tub-tubida yotgan, hechkimga aytmagan savollar bo‘lib, hikoyada muallif ikkita odam bo‘ladi. Savol beradigan o‘zi bo‘la turib, lekin javob berishda qiynalib ketadi. Bular asosan tushunish va fikr, ichki bezovtalik va sabab,

tushkunlik va ishonch, hayot va vafo, ruhiy erkinlik va hayot qonuniyatlari, oila va muhabbat ya'ni onaga bo'lgan, rafiqaga bo'lgan muhabbat. Lekin shundan o'zi qoniqmasdan qanday yashashligini izlanishda bo'ladi.

Muallif hikoyada yuqoridagi fikrlarni iloji boricha ochib berishga xarakat qilgan. Buni biz hikoyadan misollar orqali ko'ramiz:

1

“Lab taskin bo'laoladimi?”

“Bu so'zni xechqachon eshitmaganman”.

“Yo'q- uni uchratgansan, Jagjit”.

“Sen unutaversang men ozod bo'lmayman”. Bundan qalbi notinch insonni ko'rishimiz mumkin. Jagjit hattoki ichidan kelayotgan savollarga ham o'zi tushunmay qolmoqda.

A.Pritam bir inson ichida kechayotgan jarayonni tasvirlarkan, bu orqali balkim u shu davr muhitini ham, u davr odamlarining yashash tarzini biro dam orqali ko'rsatishga uringandir. Lekin bu bilan barcha shunday deb bo'lmaydi.

Shuning bilan birga inkor ham qilib bo'lmaydi. Muallif oilaviy masalalarni ham asosiy o'ringa qo'yadi. Bunga misol keltirsak:

1

“Mashuqa sening yuragingda paydo bo'lgan edi. Nima “rafiqa” va “ona” ikkala so'z uning ko'zlarini to'sib qo'yaoladimi. Unday ham bo'lmaydi, ko'z oldiga qora parda ham tortmaydi”. Jagjit oilasida ham ba'zi muammolar borligini bundan ko'rishimiz mumkin. Lekin uning bunday qiynalishiga sabab boshqa bo'ladi:

2

“Onang xayot, rafiqang xayot, nima ularni yashashga xaqqi yo’qmi. Sen o’zing ayt ularni qayerga qo’yay. Mening moddiy qiyinchiligimni qara”. Jagjitni asosiy muammolaridan biri, bu uning faqir hayot kechirishi edi. Bu orqali u o’z yaqinlarini ham qiynab qo’yayotgan edi. Bulardan tashqari u mehr oqibat va sodiqlik haqida ham o’ylardi:

1

“Mening vafoligim...”.

“ Vafo.... Vafo qandaydir ro’mol emas. Bu axir qalbning ko’rinishidir. Kiyib ham yechib ham bo’lmaydi...”

“. Lekin ...”. Bu bilan Jagjit va uning ichki ovozidan shuni anglashimiz mumkinki, oilaga; onaga va rafiqasiga bo’lgan vafodarlighi, ularga bo’lgan muhabbatini qay darajada ekanligini ko’rsatmoqchi bo’lmoqda, yoki o’zi bularni barini tushunib olishga urunmoqda.

Hikoyaning rivojlanish jarayonida Jagjit o’zligini anglab yeta boshlaydi. U ba’zida o’zini kimligini endi bilayotganga o’xshaydi:

2

“Undan ko’proq pok va yaxshiroq narsalar menga sezilmadi. Men faqat shu xaqiqatni sezdimki, xaqiqatda “men o’zim” man. Qolgan barcha narsada “men” yo’q. Yoki bu “men” ko’plab qisimlarga bo’linib ketadi”. “Men” deb muallif o’z qaxramonini o’zligiga qaratgan, uning ruhiy hotirjamligi, ichki bezovtalikni bosishga xarakat deb tushunishga yordam beradi.

Hikoyaning rivojlanish jarayoni bir joyda boshlanib, bir joyda tugaydi. Hikoyaning boshlanishi yo’q desa ham bo’ladi. Asosiy kulminatsion qismi uning butun hikoyada ko’rinadi. Hikoyaning yugashi “suhbat”ning tugashi bilan yakunlanadi.

Hikoyaning tuzilishi, mazmuni, hususiyatlari jihatidan butunlay noan’anaviy hikoyalar qatoriga qo’shish mumkin. Uning mazmunidan bir qarashda soddadek ko’rinadi, ya’ni biro damning o’zi bilan o’zi gaplashadi. Lekin uning asil mohiyati, uning zamirida butunlay boahqa narsalar yashiringanligini yoki umuman boshqa ma’noni anglatishini ko’rib chiqdik. Shuni ham aytib o’tish kerakki, bu bilan uni murakkab tuzilgan deb ham bo’lmaydi, chunki A.Pritam ijodida o’zi qadimiy adabiy janrlarni, murakkabliklarni uchratmaymiz. Hikoyada eng ko’p qo’llanilgan adabiy san’at turi manologdir. Bundan tashqari muallif fikri ham qisman mavjud. Shuningdek, qiyoslashlar, o’xshatishlar ham mavjud. Hikoya janr jihatidan

realizmdan ko'ra ko'proq badiiylilik ko'proq ko'rinadi. Real voqea bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin muallif ijodiy yondashuvi ko'proqdir.

Hikoya tahliliga xulosa qilsak, muallif juda noan'anaviy shakldagi hikoya yozganligini ko'rmoqdamiz. Kitobxonda savol tug'ulishi mumkin. Nega yozuvchi bir damning o'zi bilan o'zi gaplashganini yozgan? Bunga shunday javob berish mumkin. Hikoyada Jagjit hayotdan, o'z hayotidan, jamiyatdan adolatni qidirgan. Ya'ni: Unga nega bunchalik ko'p qiyinchiliklar berildi? To'g'ri yo'ldan yuryapdimi? Qayerda xato qildi yoki gunoh ishga qo'l urdi? Bu kabi savollar bilan u adolat bor yoki yo'qligini bilmoqchi bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar

A.Pritam hikoyalarini tarjima qilib, o'rganib va tahlil qilib shunday xulosaga kelindi. Yozuvchi nafaqat urdu-hind adabiyotida balki butun osiyo adabiyotida mashhurligi va muhim o'ringa ega ekanligi ahamiyatlidir. Yozuvchining hikoyalarida asosiy o'rinda reallik va badiiylik yonma-yon tarzda ijodiy yondashilgan. Bu uning hikoyalarini jonli va badiiy go'zalligini saqlab qolgan.

Amrita Pritam hikoyalari sof va intim intonatsiya, nozik ayollik didi bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida voqe'likning realistik aks ettirilishi romantik bo'yoqning ko'p emasligi va shaxs hamda jamiyat aloqalari tagma'no orqali ochilishi, katta ijtimoiyot esa tushunarliklikka yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Amrita Pritamning realistik bitiklarida asosan o'sha paytda hali panjob adabiyotida keng rivojlanmagan etik muammolarni aks ettirishning assosatsativ usuli mavjudligini qayd etib o'tishimiz lozim.

Yozuvchi hikoyalari o'quvchi fikrini teranlashtirishga, uni fikr bildirishga majburlayoladi. Biz tanlab olgan hikoyalarda asosiy mavu ayol va uning sevgisi, shuningdek inson va uning hayoti o'rin olgan. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki, bugungi ijtimoiy hayotimizning eng muhim masalalari va mavzularidan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Amrita Pritamning eng katta yutug'i shunda ediki, u hind ayolini to'laonli jonli ifoda etaolgan yozuvchilardandir. Uning hikoyalari xajm jihatidan qisqa va kichik bo'lishiga qaramay, eng chuqur falsafiy yuklamaga ega, ya'ni: sevgi va haqiqat, borlik va adolatlik masalalardagi muvozanatni qidiradi. Lekin bu masalalarni Tagor ham o'z she'riyatida ham murojaat qilgan edi. Muallif hikoyasi orqali sevgida haqiqat bormi yoki yo'qmi degan savolga yechim topishga xarakat qilgan. Bu bilan muallif aytmochiki o'sha davr ayollarida nimadir bo'lganki boy va ziyoli bir yigit qishloq qizini, kambag'al, o'qimagan bo'lsa ham yaxshi ko'rib qoladi va unga intiladi. Yigit uning sevgisida haqiqat, adolat borligini tushunib yetgan. Bunday hususiyatlar bugungi yoshlarga ham naqadar kerakligini biz ko'rmoqdamiz.

Dastlabki hikoyaning ahamiyati shunda ediki, muallif tomonidan umuman adabiyotda sevgini chuqurroq anglashga va jiddiyroq yondashishni nazarda tutgan. Shuningdek asl sevgi hech qachon boy yoki kambag'alligi, mavqeyi, jamiyatda tutgan o'rni qanaqaligiga qaramaydi. Muallif buni juda yaxshi ko'rsata olgan. Shuningdek sevgi chegara bilmasligi, makon tanlamasligi, zamonga qaramasligi, tengsizlikni chetlab o'tishi kabi hususiyatlarni hikoyada ko'ramiz. Ikkinchidan yana bir ahamiyati bu hikoyalarning ba'zilar hajmi kichkina bo'lishiga qaramay, u juda chuqur masalani, keng qamrovli mavzuni qamrab olgani bilan ahamiyatga molikdir. Misol uchun eskirib ketgan urf-odatlar, an'analar, jamiyatdagi ba'zi bir qarashlar, san'at ahlining qanday ahvoldaligini tanqid qilmay turib ochib bergan. Bundan tashqari sevgiga an'anaviy qarashlar qandayligini tanqidiy usulda ko'rsatgan.

Qolgan hikoyalarda ham asosan bulardan tashqari inson psixalogiyasi oldinga chiqadi. Bularni muallif o'z hikoyalarida ko'proq ayollar va ayol taqdiri bilan bog'lashga harakat qilgan. Lekin bundan mustasno tarzda "Qizil qalampir" hikoyasida muallif aynan erkak obrazida ayollar hislatlarini ochib berga. Bunda ham bir o'ziga hos uslub mavjud. Uning "Suhbat" va "Qizil qalampir" hikoyalari ham esse janriga o'xshab ketadi. Ya'ni A.Pritam yangi shakldagi hikoyalarni ustida ishlagan; hikoya esse¹, hikoya fikrlash va boshqalar.. Bunga aynan yozuvchining "Suhbat" hikoyasi to'g'ri keladi. Unda muallif kitobxondan fikrash, o'zi haqida yana bir bor o'ylashi kerakligiga undaydi. "Suyaklar va gul", "Qizil qalampir" hikoyalarida ham "Bir qiz bir jom" dagidek sevgida haqiqatni izlash alomatlari mavjud. Bundan tashqari ularda ayolga bo'lgan sevgidan tashqari hudoga bo'lgan muhabbatni ham ko'ramiz. Yoki bo'lmasam "Suhbat" hikoyasida savol javob orqali inson nimani qidirgan, yoki muallif nimani uqtirmoqchi bo'lgan? Albatta bunday savollar kitobxonda tug'ulishi mumkin. Agar muallifning ijodiga yondashadigan bo'lsak va hikoyadan kelib chiqsak bu yerda adolat haqida gap ketmoqda. A.Pritam hikoyalaridagi qahramonlarning ko'pchiligi adolat va

¹ Esse-ransuzchadan olingan bo'lib, ocherk, maqola, ya'ni: tanqidchilik janri, masalani tahliliga falsafiy yondashish, fikrni ko'proq va erkinroq bildirishdir.

haqiqatni izlashganini ko'ramiz. Albatta ular buni sevgidan hayotdan izlashgan. Shu o'rinda asosiy o'ringa ayol obrazi chiqadi.

Fikrimiz so'ngida aytishimiz mumkinki, yozuvchining hikoyalarini o'qigan kitobxon o'zining ba'zi bir izlagan savollariga javob topishi, tushunmagan jihatlarini anglashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”, T., 2009.
2. “Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqidan”
3. T. Boboyev “ Adabiyotshunoslik nazariyasi ” T. 1998.
4. X. Umarov “ Adabiyotshunoslik nazariyasi ” T. 2004.
5. Xodjaeva T. A. “Hindiston xalqlari adabiyoti” (yangi va eng yangi davr) T-2010.
6. T.Xolmirzayev “Urducha-o‘zbekcha” lug‘at T-2003.
7. G. Hidoyatov 11-sinf Jahon tarixi T-2004.
8. Xodjayeva T.A. “Художественная прозы Амрити Притам” монография T-2007.
9. Притам Амрита. Тайны сердец (сборник стихов). Алма-Ата.Изд-во Жазушы, 1977б 228 с.
10. Притам Амрита. Черная роза (сборник стихов) Т. Изд-во литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1971, 145 с.
11. Серебряков И.Д. Пенжабская литература. М. Изд-во восточной литературы. 1963, 193 с.
12. Чельшев Е.П. Литература хинди. М. Наука, 1968, 308 с.
13. Чельшев Е.П. Современная индийская литература. М. Худ. Литра, 1981, 337 с.
14. Чельшев Е.П. Современная поэзия хинди. М. ГРВЛ. Наука, 1965, 372 с.
15. Amrita Pritam. Bir savol(Romandan parcha). Sharq yulduzi. T. 1961.
16. Amrita Pritam bilan tanishish. O‘zbekiston xotin qizlari. T. 1961.

Internet saytlari:

www.wikipedia.com
www.pratilipi.in
www.kabirprojekt.pk
www.indiaclub.com